

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XAKIMOV OLIMJON NEMATOVICH

**AMUDARYO HOZIRGI DELTASI ELEMENTAR LANDSHAFTLARNING
MELIORATIV HOLATIDA RELYEF STRUKTURASINING ROLI**

11.00.01 – Tabiiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Xakimov Olimjon Nematovich

Amudaryo hozirgi deltasi elementar landshaftlarning meliorativ holatida relyef strukturasining roli 3

Хакимов Олимжон Нематович

Роль структуры рельефа в мелиоративном состоянии элементарных ландшафтов современной дельты Амударьи 21

Khakimov Olimjon Nematovich

The role of relief structure in the meliorative state of elementary landscapes of the modern Amu Darya delta 39

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XAKIMOV OLIMJON NEMATOVICH

**AMUDARYO HOZIRGI DELTASI ELEMENTAR LANDSHAFTLARNING
MELIORATIV HOLATIDA RELYEF STRUKTURASINING ROLI**

11.00.01 – Tabiiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Gr332 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Urazbayev Abdukarim Kendirbayevich
geografiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Rafikov Vaxab Asomovich
geografiya fanlari doktori, professor

Alimqulov Nusratulla Raxmonqulovich
geografiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 22-avgust kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, Samarqand sh. Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (99) 776-77-25, faks: (0366) 239-19-36; E-mail: ik-geografiya2019@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№60-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh. Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 233-60-87.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 9-avgust kuni tarqatildi.
(2025-yil 24-iyuldagi 11-raqamli reyestr bayonnomasi).



S.B.Abbasov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, g.f.d., professor

B.A.Meliyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, g.f.f.d. (PhD), dotsent

Q.S.Yarashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, g.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda cho‘llanish jarayoni avj olayotganligi tufayli yerlarning meliorativ holatining yomonlashuvi, pedotizim degradatsiyasi va boshqa salbiy ekologik hamda tabiiy geografik jarayonlar kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bu kabi muammolarni ijobiy hal etishga halqaro tashkilotlar jumladan BMTning 2030 yilgacha barqaror rivojlanish dasturida “quruqlik ekosistemalrini muhofaza qilish va tiklash, ulardan oqilona foydalanish, o‘rmonlarni samarali boshqarish, cho‘llanishga qarshi kurashish, yerlarning degradatsiyasini to‘xtatish”¹ vazifalari yechimiga alohida e‘tibor qaratilgan. Mazkur vazifalarni yechimi ayniqsa arid iqlimli hududlarda, shu jumladan daryolar deltasidagi sug‘oriladigan va sug‘orilmaydigan hududlarning tabiiy-meliorativ sharoitini o‘rganish, baholash hamda ilmiy asoslangan meliorativ tadbirlarni kompleks olib borishni taqozo etadi.

Dunyoda landshaftlarni meliorativ holatini baholash, yerlarning tabiiy strukturasiga sug‘orishni ta’siri va sug‘oriladigan hududlarning funksional yaxlitligi va aloqadorligini aniqlash, elementar landshaft guruhlarini aratishda tuproq turlarini relyef shakllari bilan birikuvi asosiy rol o‘ynashini ilmiy asoslash yo‘nalishlarida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada hududlarni landshaft-meliorativ holatini yaxshilash, sug‘orishni integrallashgan holda boshqarish, ularning hududiy tarkibini takomillashtirish, elementar landshaftlarni tasniflashda zamonaviy tadqiqot natijalarini inobatga olish, arid iqlim sharoitida hududlar uchun barqaror rivojlantirish tamoyillarini ishlab chiqish ustuvor ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda delta geotizimlarida vujudga kelgan elementar landshaft guruhlarining sho‘rlanishini oldini olishga qaratilgan meliorativ tadbirlarni amalga oshirish borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”² Orolbo‘yida xalqaro “Yashil iqlim” va Global ekologik jamg‘armalarining bioxilma-xillik, iqlim o‘zgarishi va tuproq degradatsiyasining oldini olishga qaratilgan dasturlari asosida 300 million AQSH dollari qiymatidagi loyihalarni amalga oshirish,...ekologik muhitni yaxshilash, yashil makon, Orolbo‘yi hududlarining ekotizimini saqlash va yaxshi tomonga o‘zgartirish...” yuzasidan muhim vazifalar belgilangan. Bu borada, Amudaryo hozirgi deltasi elementar landshaft guruhlarining meliorativ holatida relyef strukturasining rolini aniqlashga doir maqsadli tadqiq ishlari muhim ilmiy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 18-yanvardagi PQ-2731-sonli “2017-2021-yillarda Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish davlat dasturi to‘g‘risida”gi, 2017-yil

¹ Повестки дня в области устойчивого развития на период до 2030 года //Электронный доступ: <https://uzbekistan.un.org/ru/sdgs/15>.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» gi Farmoni.

27-noyabrda PQ-3405-sonli “2018-2019-yillarda irrigatsiyani rivojlantirish va sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof muhitini muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrda 1031-sonli “Orol dengizi tubidagi suvi qurigan hududlarda “Yashil qoplamalar” – himoya o‘rmonzorlari barpo etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhit muhofazasi”, VIII. “Yer haqidagi fanlar” ustivor yo‘nalishlariga muvofiq holda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Amudaryo hozirgi deltasining tabiiy meliorativ sharoitini o‘rganish va baholash, asosan, 1961 yildan so‘ng, ya‘ni delta taraqqiyoti gidromorf rejimidan avtomorf rejimiga o‘tish davridan boshlangan. Bu muammo bilan V.P.Sorokina, V.A.Timoshkina (1969), I.N.Stepanov (1979), F.M.Raximbayev (1980), A.A.Rafiqov (1984), A.K.Urazbayev (1988), F.I.Xakimov (1989), B.Jolibekov (1992), K.J.Allanazarov (2002), I.R.Turdimambetov (2005), A.N.Nigmatov, P.Reymov, S.Abdreymov (2006), V.A.Rafiqov (2017), D.D.Xursanov (2019), Q.Q.Tadjiyev (2021), Sh.I.Ibroimov (2023) va boshqalar shug‘ullangan. A.K.Urazbayev (1988) Amudaryo hozirgi deltasi o‘ng qirg‘og‘ining tabiiy-meliorativ sharoitini baholashda kichik deltalarning strukturaviy yaxlitligini asos qilib olgan bo‘lsa, Q.Q.Tadjiyev esa Amudaryo hozirgi deltasi chap qirg‘og‘ining tabiiy-meliorativ sharoitini baholashda kollektor havzalarining funksional yaxlitligini asos qilib olgan.

Ammo bu tadqiqotlarda Amudaryo hozirgi deltasi elementar landshaft guruhlarining meliorativ holatiga relyef strukturasi ta‘siri maxsus tahlil qilinmagan. Shu bilan bir qatorda kichik deltalarning daraxtsimon strukturasi va kollektor havzalarining funksional yaxlitligida elementar landshaft guruhlarining tabaqalanishi turlicha bo‘lganligi sababli, bu hududlardagi landshaftlarning meliorativ holatiga relyef strukturasi ta‘siri ham har xil bo‘ladi. Bu o‘zaro aloqadorlikni tadqiq qilishda obyektning yirik masshtabli relyef plastikasi kartasi asos vazifasini bajaradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Geografiya fanida tizimli yondashish: nazariya, eksperiment, amaliyot va ta‘lim” mavzusidagi (2021-2025) ilmiy tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi elementar landshaft guruhlarining meliorativ holatida relyef strukturasi rolini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kichik deltalarning va Amudaryo o‘zanbo‘yi balandliklarining shoxlanuvchi strukturasi elementar landshaft guruhlarining tabaqalanish qonuniyatlarini ochib berish;

relyefning shoxlanuvchi strukturasi bilan elementar landshaft guruhlari meliorativ holatining o‘zaro aloqadorligini tahlil qilish va Erkindaryo deltasi tuproqlarining sho‘rlanish darajasi kartasini tuzish;

kollektor geotizimlaridagi relyef havzaviy strukturasi elementar landshaft guruhlarining meliorativ holatiga ta‘sirini tadqiq qilish;

sug‘oriladigan va sug‘orilmaydigan hududlarning Yer resurslaridan oqilona foydalanishda relyef strukturasi rolini asoslab berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Amudaryo hozirgi deltasi elementar landshaft guruhlari olingan.

Tadqiqotning predmeti relyef strukturasi bilan elementar landshaft guruhlari meliorativ holatining o‘zaro aloqadorligini tahlili hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida relyef plastikasi usuli, dala-tadqiqot, geografik taqqoslash, tizimli yondashish, kartografik, zamonaviy geografik axborotlar tizimi (GAT) va landshaft geokimyoviy usulidan foydalanilgan. Relyef plastikasi kartasi asosida elementar landshaft guruhlarining o‘zaro aloqadorligi tahlil qilingan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kichik deltalarning va Amudaryo o‘zanbo‘yi balandliklarining shoxlanuvchi strukturasi elementar landshaft guruhlarining tizimli tabaqalanish qonuniyatlari yirik masshtabli (1:25000) relyef plastikasi kartalari asosida ilmiy asoslangan;

elyuvial, trans-elyuvial, superakval elementar landshaft guruhlarining meliorativ holati bilan relyef strukturasi o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik aniqlangan;

Erkindaryo kichik deltasining 1: 100000 masshtabidagi “Tuproqlarning sho‘rlanish darajasi” hamda Amudaryo o‘zanbo‘yi balandliklarida “Elementar landshaft guruhlari”ning kartalari ArcGIS dasturida yaratilgan;

ilk bor sug‘orilmaydigan hududlarning Yer resurslaridan oqilona foydalanishda kichik deltalar shoxlanuvchi strukturasi va sug‘oriladigan hududlarning Yer resurslaridan samarali foydalanishda kollektor geotizimlar havzaviy strukturasi rollari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

olib borilgan tadqiqotlar natijasida turli masshtabidagi kichik deltalarning va Amudaryo o‘zanbo‘yi balandliklarining “Elementar landshaft guruhlari” va “Erkindaryo kichik deltasi tuproqlarining sho‘rlanish darajasi” kartalari yaratilgan;

sug‘orma dehqonchilikni va melioratsiyani rivojlantirish maqsadida elementar landshaft guruhlari meliorativ holatining relyef strukturasi bilan aloqadorligi ilk bor amaliyotda isbotlangan;

elyuvial elementar landshaftdan irrigatsiya tarmoqlarini o‘tkazish, kichik deltalarning tutashgan superakval elementar landshaftdan melioratsiya tizimlarini o‘tkazilishi asoslab berilgan;

sugʻoriladigan va sugʻorilmaydigan hududlarning Yer resurslaridan oqilona foydalanishda relyef strukturasi rolining amaliy ahamiyati ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan natijalarning ishonchliligi yirik topografik kartalar (1:25000) asosida yaratilgan Amudaryo hozirgi deltasining relyef plastikasi kartalaridan dala-ekspeditsiya tadqiq ishlarida asos sifatida foydalanilganligi, elementar landshaft guruhlari bilan relyef elementlarining (balandliklar va pastliklar) aloqadorligi, delta tarixida roʻy bergan lito-morfo-pedogenez jarayoni natijasida hosil boʻlgan relyef strukturasi oʻrganishda relyef plastikasi kartasining asosiy rol oʻynashi, irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini oʻtkazishda relyef strukturasi ilmiy ahamiyati, olingan natijalarning tabiiy geografiya fanidagi geotizim taʼlimotiga va ilgari sugʻorma dehqonchilikda hamda melioratsiyada olib borilgan tadqiqotlarning xulosalariga mosligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati elementar landshaft guruhlari meliorativ holatining relyef strukturasi bilan oʻzaro aloqadorligi relyef plastikasi usuli asosida aniqlanganligi, relyefning balandliklari va pastliklari bilan bogʻlangan holda tuproq turlarining kichik deltalarning yuqori qismidan quyi qismi tomon tizimli oʻzgarishi, elementar landshaft guruhlari kichik deltalarda va Amudaryo oʻzanboʻyi balandliklarida tizimli oʻzgarishi ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Yirik masshtabli topografik kartalar asosida yaratilgan obyektning relyef plastikasi kartalari sugʻorma dehqonchilik va melioratsiyadagi irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini oʻtkazishda asos boʻlishi, tuproqlarni shoʻrlanish darajasi kartasi ekinlarni toʻgʻri joylashtirish hamda tuproqlarning ball-bonitetini aniqroq baholash imkonini oshirganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Amudaryo hozirgi deltasi “Tuproq qoplamining strukturasi” va uning tabaqalanish qonuniyatlari boʻyicha olingan natijalar asosida:

kichik deltalarning va Amudaryo oʻzanboʻyi balandliklarining shoxlanuvchi strukturasi elementar landshaft guruhlari tizimli tabaqalanishni koʻrsatuvchi yirik masshtabli (1:25000) relyef plastikasi kartalaridan Qoraqalpogʻiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligida amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpogʻiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligining 2024 yil 10 dekabrda 02-01/18-2-3958-son maʼlumotnomasi). Natijada, oʻzan boʻyi balandliklaridan xoʻjalikning turli tarmoqlarida samarali, barqaror va oqilona foydalanish rejalarini takomillashtirish imkonini bergan;

elyuvial, trans-elyuvial, superakval elementar landshaft guruhlari meliorativ holati bilan relyef strukturasi oʻrtasidagi oʻzaro aloqadorliklari yuzasidan berilgan ilmiy va amaliy tavsiyalari Qoraqalpogʻiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligida amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpogʻiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligining 2024 yil 10 dekabrda 02-01/18-2-3958-son maʼlumotnomasi). Natijada, ushbu hududdagi tarqalgan elementar landshaft

guruhlarining xususiyatlaridan kelib chiqib melioratsiya ishlarini amalga oshirish imkoniyati yanada kengaytirilgan;

Erkindaryo kichik deltasining 1:100000 masshtabdagi “Tuproqlarning sho‘rlanish darajasi” kartasidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligida amaliyotida foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2024 yil 10 dekabrda 02-01/18-2-3958-son ma‘lumotnomasi). Natijada, hududlarni geoekologik monitoring qilish, sho‘rlanishning hosildorlikka ta‘sirini kamaytirish strategiyasini takomillashtirish imkonini bergan;

sug‘orilmaydigan hududlarning Yer resurslaridan oqilona foydalanishda kichik deltalar shoxlanuvchi strukturasining va sug‘oriladigan hududlarning Yer resurslaridan samarali foydalanishda esa kollektor geotizimlar havzaviy strukturasiga ustuvor ekanligini asoslovchi g‘oyalari hamda ilmiy va amaliy tavsiyalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligida amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2024 yil 10 dekabrda 02-01/18-2-3958-son ma‘lumotnomasi). Natijada, sug‘orilmaydigan hududlarda kichik deltalarning shoxlanuvchi strukturasiga, sug‘oriladigan hududlarda esa kollektor geotizimlar havzaviy strukturasiga ustuvorlik berish samarali ekanligini aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarning aprobatsiyasi mazkur tadqiqot natijalari 2 ta halqaro va 4 ta respublika ilmiy – amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 13 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika. 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar tizimidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyatini ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Delta geotizimlarining relyef strukturasini tadqiq qilishning nazariy asoslari”** deb nomlanib, uning birinchi paragrafi quyidagicha: **“Relyef strukturasini tahlili qilishda topografik kartalarning va aerokosmik suratlarning hamda ular asosida tuzilgan relyef plastikasi**

kartasining roli” deb nomlanadi. Relyef plastikasi kartasining tuzilishida ayniqsa topografik kartalarning va ularning masshtabiga alohida e’tibor beriladi. Obyektning relyef strukturasini tahlil qilishda yirik topografik kartalar (1:25000) asosida tuzilgan relyef plastikasi kartalarining roli beqiyosdir. Ana shuning uchun ham biz kichik deltalarning va kollektor havzalarining relyef plastikasi kartalarini tahlil qilishda turli relyef tiplarining shakllariga e’tibor berdik. Turli relyef shakllarining tahlili shuni ko’rsatadiki, deltadagi allyuvial tekisliklar, qirlar va qumli massivlar o’zlarining ichki strukturasini, ya’ni balandlik va pastliklarning bir-biriga bo’lgan munosabatlari bo’yicha farqlanadi. Misol uchun kichik deltalardagi balandliklarning ko’pchiligi asosan janubdan shimolga yo’nalgandir. Deltadagi Qiziljar va Kuskanatau qirlarining janubida mahalliy suvayirg’ichlar joylashgan bo’lib, bu suvayirg’ichlardan balandliklar shimol va janub tomonlarga yo’nalgandir. Amudaryo hozirgi deltasining sharqidagi qumliklarning deyarli hammasi shamolning yo’nalishiga bog’liq holda janubdan shimol tomon yo’nalgandir.

Obyektning relyef strukturasini tahlil qilishda kosmosuratlarning roli beqiyos bo’lib, ular qadimgi sug’orish massivlarini, irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarini aniq ko’rsatadi. Ammo ba’zi hollarda deltalar haqidagi bilimlarni berishda kosmosuratlar o’zlarining ma’lumotlari bo’yichak topografik kartalardan so’ng turadi. Bu fikrni relyef strukturasini kosmosuratlar bo’yicha tadqiq qiluvchi S.A.Sladkopevtsevning (1982) so’zi ham tasdiqlaydi: “Kuchsiz parchalangan delta tekisliklari kosmosuratlarda tasvirlanishi bo’yicha topografik kartalardan so’ng turadi”.

Amudaryo hozirgi deltasining yirik masshtabli relyef plastikasi kartasiga ega bo’lish o’z navbatida tuziladigan geomorfologik kartalarda har xil yoshdagi kichik deltalarni ko’rsatishga va shu bilan birgalikda har xil strukturaga ega bo’lgan qirlarni hamda qumli massivlarni tasvirlashga asos yaratadi. Kelajakda relyef plastikasi kartasi asosida yaratiladigan hududning geomorfologik kartasidagi konturlar oddiy konturlar bo’lib qolmasdan, har bir relyef tipidagi konturlar o’zlarining ichki strukturasini bo’yicha bir-biridan farq qilishi tabiiydir. Shu bilan bir qatorda yangi ko’rinishga ega bo’lgan geomorfologik kartalari elementar landshaftlarning meliorativ holatiga ta’sir etadigan tizim hosil qiluvchi Yer usti suv oqimlarining yo’nalishini ham aniq ko’rsatadi. Bu esa o’z navbatida elementar landshaftlarning meliorativ holatini ko’rsatuvchi tematik kartalarga asos bo’ladi.

Bobning ikkinchi paragrafida **“Yer yuzasini kartografik ideallashtirish va uning relyef strukturasini tadqiq qilishdagi o’rni”** muammolari ko’riladi. Ideallashtirish jarayonida barcha ikkinchi darajali o’lchamlar tashlanib yuboriladi, faqat geometrik tahlil uchun zarur bo’lgan: nuqtalar, chiziqlar qoldiriladi, ya’ni I.N.Stepanov (1986) fikricha bu belgilar orqali obyektlarning haqiqiy strukturasini tadqiq qilinadi. Obyektlarning relyef plastikasi asosida Erkindaryo kichik deltasidagi “shoxlarning” geometrik shakllari hosil qilinadi (Rasm 1), ya’ni bu geometrik shakllar kichik deltalardagi relyefning haqiqiy strukturasini aks ettiradi. Relyefni 1-rasmda ko’rsatilganidek “shoxlanuvchi” chiziqlar yordamida tasvirlash o’z navbatida ularning yig’indisi “topologik” daraxtni hosil qiladi, “topologik” daraxtlarning yig’indisi esa “topologik” o’rmonni hosil qiladi. Boshqacha so’z

bilan aytganda, “O‘zbekistonning orografik kartasi”da tog‘ tizmalarining “chiziqlar” yordamida ko‘rsatilishi o‘z navbatida relyefni ideallashtirish bosqichining hosilasi hisoblanadi, ya’ni relyefning balandlik elementlari faqat tog‘li xududlarda emas, balki shu bilan birgalikda tep-tekis hisoblangan delta geotizimlarida ham o‘zanbo‘yi balandliklari uchraydi. Qisqa qilib aytganda, relyefning balandlik elementlarini “chiziqlar” yordamida tasvirlash o‘z navbatida ana shu hududdagi relyefning haqiqiy strukturasi tahlil qilish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.




1-rasm. Erkindaryo kichik deltasi quyi qismining ideallashtirilgan relyef kartasi. Balandliklar chiziqlar yordamida ko‘rsatilgan

Bobning eng so‘nggi uchunchi paragrafi da **obyekt relyefining kelib chiqish tarixi** tahlil qilinadi. N.A.Kenesarin delta hosil bo‘lish jarayonini uch bosqichga ajratadi: 1. Juda qadimgi bosqich. Bu bosqichda asosan Sariqamish va Aqchadaryo deltalari hosil bo‘lgan. Amudaryo deltasining umumiy geologik yoshi taxminan 17-18 ming yilni tashkil etadi (Lopatin 1957); 2. Yangi davr A.S.Kesning (1991) ma’lumotlariga ko‘ra, eramizdan avvalgi ikki mingchi yilning ikkinchi yarmida Amudaryo Orol botig‘iga janub tomondan quyiladi. Ana shu davrdan boshlab Amudaryoning hozirgi o‘zani va Orolbo‘yi deltasi paydo bo‘la boshlaydi. Amudaryoning hozirgi (Orolbo‘yi) deltasini paydo bo‘lishi davriga qarab, uni ikki qismga ajratish mumkin: janubiy, ancha eski va hozirgi vaqtda qurigan hamda shimoliy “tirik”, ya’ni bu qismda 20-asrning 60-yillarigacha daryo yotqiziqlari olib kelish va yotqizilishi davom etgan. Bu bosqichda Qizketken-Chimboy va Sho‘rtamboy kichik deltalari hosil bo‘lgan.

3. Hozirgi davr. Bu davrda Amudaryo hozirgi deltasining shimoliy “tirik” qismi paydo bo‘lgan, ya’ni Erkindaryo va Ko‘hnadaryo-Qozoqdaryo kichik deltalari. A.A.Rafiqovning (1984) ma’lumotlariga ko‘ra, delta “tirik” qismining hozirgi ko‘rinishi 1974 yilgacha paydo bo‘lgan, ya’ni bu davrga kelib, delta o‘zining ko‘l-botqoq taraqqiyot bosqichini tugatgan. Delta relyefining hozirgi ko‘rinishlari asosan XX asrning o‘rtalarida paydo bo‘lgan. Amudaryo hozirgi deltasining janubiy qismi 5000 yil davomida paydo bo‘lgan bo‘lsa, uning “tirik” shimoliy qismi taxminan 2500 yillar davomida hosil bo‘lgan (Lopatin, 1957).

Dissertatsiyaning asosiy bobi bo‘lgan ikkinchi bob quyidagicha nomlanadi: **“Elementar landshaftlar meliorativ holatining tabaqalanishida relyef strukturasiining roli”**. Bobning birinchi paragrafi: **“Elementar landshaft guruhlari meliorativ holatining relyef elementlari bilan bog‘liqligi”** deb nomlanib, bu qismda biz asosan B.B.Polinov (1956) ishlab chiqqan elementar landshaft guruhlarini asos qilib oldik. Agar biz 2-rasmda ko‘rsatilgan ideallashtirilgan kichik deltani B.B.Polinovning “Geokimyoviy landshaft” ta’limoti asosida tahlil qiladigan bo‘lsak, bu kichik deltada olim ajratgan barcha elementar landshaft guruhlari mavjuddir.



2-rasm. Ideallashtirilgan kichik deltada obyektidagi relyef shakllari (o‘zanbo‘yi balandliklari, o‘zanbo‘yi balandliklarining yonbag‘irlari, o‘zanalararo pastliklar) bilan elementar landshaft guruhlarining (elyuvial, tarns-elyuvial, superakal) bilan uyg‘unligi.

1) Elyuvial (o‘zanbo‘yi balandliklari); 2) trans-elyuvial (o‘zanbo‘yi balandliklari yonbag‘irlari); 3) superakval (o‘zanlararo pastliklar).

Biz B.B.Polinovning “Geokimyoviy landshaft” ta’limotini asos qilib olgan elementar landshaft guruhlari uning meliorativ holatini tadqiq qilishni bir necha bosqichlarga ajratdik va bu bosqichlar bir-biri bilan mantiqiy bog‘langandir (Rasm 3). Relyef plastikasi usuli asosida elementar landshaft guruhlari va uning meliorativ holatini tadqiq qilishning birinchi bosqichida B.B.Polinovning “Geokimyoviy landshaft” ta’limotining ilmiy va amaliy ahamiyati ko‘rsatiladi. Rasmdagi qolgan hamma bosqichlar “Geokimyoviy landshaft” ta’limotini dala

tadqiqotida tadbiq etishning usullari ko'rsatilgan. Boshqacha aytganda, delta sharoitida relyef elementlari bilan bog'langan elementar landshaft guruhlari o'ziga hos aloqadorlikda bo'ladi va yaxlit geotizimni hosil qiladi.



3-rasm. Elementar landshaft guruhlari va uning meliorativ holatini relyef plastikasi usuli asosida tadqiq qilishning bosqichlari

Bobning **"Erkindaryo kichik deltasidagi elementar landshaftlarning meliorativ holati"** deb nomlangan ikkinchi paragrafda obyektidagi elementar landshaftlarning meliorativ holati tadqiq etilgan. Erkindaryo kichik deltasi cho'ziluvchan "daraxtsimon" strukturaga yaqqol misol bo'la oladi. Kichik deltadagi elyuvial elementar landshafti janubi-g'arbdan shimoli-sharqqa yo'nalgandir. Erkindaryo kichik deltasida elyuvial elementar landshafti ko'p

maydonni egallagan uchun kuchli sho'rlangan tuproqlar kamdir. Elyuvial elementar landshaftida grunt suvlarining chuqurligi 7 m dan past bo'lganligi sababli asosan kuchsiz sho'rlangan o'tloq-taqirli to'qay tuproqlari tarqalgan.


Erkindaryo kichik deltasi relyef plastikasi kartasining tahlili shuni ko'rsatadiki, u ikkita "shoxlanuvchi" struktura hosil qiladi. Birinchi "shoxlanuvchi" struktura deltaning boshlang'ich qismida, ya'ni Dautko'l suv omborining g'arbiy qismida joylashgan bo'lsa, ikkinchi "shoxlanuvchi" struktura Kuskanatau qiriga parallel holda joylashgan. Birinchi shoxlanuvchi nuqtadan g'arb va sharq tomonlarga shoxlanuvchi o'zanbo'yi balandliklari davom etib, so'ng ular o'zanlararo pastliklar bilan tutashib ketadi. Ikkinchi "shoxlanuvchi" strukturadan kichik deltaning quyi qismi boshlanib, u umumiy "uchburchak" shaklga egadir. G'arbga yo'nalgan o'zanbo'yi balandliklari Amudaryo o'zanbo'yi balandliklari bilan tutashib ketadi, ya'ni bu ikki oraliqda joylashgan pastlikdan Erkindaryo kichik deltasining g'arbiy chegarasidan o'tadi. Umuman oldganda Erkindaryo kichik deltasining relyef plastikasi o'ziga xos bo'lib, bu struktura boshqa hech qanday kichik deltalarda kuzatilmaydi. Bu esa o'z navbatida deltadagi elementar landshaftlarning meliorativ holatiga ta'sir etadi.

Obyektning relyef plastikasi kartasi asosida tuzilgan **"Erkindaryo kichik deltasidagi elementar landshaftlarning guruhi kartasi"**ni tahlil qiladigan bo'lsak, elyuvial elementar landshafti o'zanbo'yi balandliklarida joylashgan bo'lib, u deyarli "shoxlanuvchi" strukturaga egadir, ya'ni bu landshaftga moddalar faqat atmosferadan yong'in va changlar tarzida tushadi. Hozirgi vaqtda elyuvial elementar landshaftida cho'llanish jarayoni deltaning yuqori qismidan quyi qismi tomon tizimli ortib boradi. O'zanbo'yi balandliklarining yonbag'irlarida, deltaning o'rta qismida, ayniqsa uning quyi qismida superakval elementar landshaftining maydoni ko'pdir. Quyi qismda superakval elementar landshaftining ko'p bo'lishi grunt suvining chuqurligi (0-3 m) bilan bog'liq bo'lib, bu hududda sho'rlanish jarayonining aktiv bo'lishi bir tomondan grunt suvining chuqurligi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan esa yer usti suv oqimining olib kelgan tuzlari bilan bog'liqdir.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Erkindaryo kichik deltasidagi tuproqlarning sho'rlanish darajasi kartasi tuzildi (Rasm 4). Tuproqlarning sho'rlanish darajasini aniqlashda M.A.Pankov (1974) tomonidan O'zbekiston tuproqlari uchun ishlab chiqilgan tasnifdan foydalandik.

Bu tasnifda tuproqlarning sho'rlanish darajalarini aniqlashda bir tomondan quruq qoldiqning umumiy miqdoriga e'tibor berilsa, ikkinchi tomondan esa ana shu quruq qoldiqdagi xlarning miqdoriga ham ahamiyat beriladi. Kichik deltaning yuqori qismidagi va o'zanbo'yi balandliklarida joylashgan elyuvial elementar landshaftidagi o'tloq-taqirli to'qay tuproqlari asosan sho'rlanmagan va kuchsiz sho'rlangan bo'ladi. Kichik deltaning quyi qismida tarqalgan gidromorf tuproqlarning (o'tloqi, sho'rxoklarning har xil turlari) sho'rlanish darajasi xilma-xil bo'lib, ular odatda o'rtacha, kuchli va juda kuchli sho'rlangan bo'ladi. Erkindaryo kichik deltasining Kuskanatau qirigacha bo'lgan sharqiy qismi sug'oriladigan hududlar bo'lib, bu qismda tuproqlarning sho'rlanish darajasi irrigatsiya va melioratsiya tizimlarining yaqin yoki uzoqligi bilan bog'liqdir.

Umuman olganda, Erkindaryo kichik deltasi elementar landshaftlarda joylashgan tuproqlarning shoʻrlanish darajasi obyektning “choʻziluvchan daraxtsimon strukturasi” bilan bogʻlangan boʻlib, gʻarbiy qismida asosan tabiiy shoʻrlanish jarayonlari roʻy bersa, sharqiy qismida esa sugʻorish jarayonlari bilan bogʻliqdir. Deltaning quyi qismidagi shoʻrlanish jarayoniga Jiltirbas koʻli u yoki bu darajada taʼsir etadi.



4-rasm. Erkindaryo kichik deltasidagi tuproqlarning shoʻrlanish darajasi kartasi

Bobning uchinchi paragrafi “**Kichik deltalardagi yer usti suv oqimlarining strukturasi**ga relyef plastikasining taʼsiri” deb nomlanib, unda asosan Yer yuzi

ichki tuzilishining Yer usti suv oqimlarining strukturasiga ta'siri obyektidagi kichik deltalar va kollektor havzalari misolida tahlil qilinadi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida obyektidagi Yer usti suv oqimlarining strukturasini ikki guruhga ajratdik: 1. Daraxtsimon struktura; 2. Havzaviy struktura. Yer usti suv oqimlarining yo'nalishini belgilashda relyefning balandlik elementi asosiy rol o'ynaydi. Yer yuzining balandlik elementi yirik masshtabli (1:25000) relyef plastikasi kartalarida aniq tasvirlanganligi uchun, bu kartalar o'z navbatida kichik deltalardagi va kollektor havzalaridagi Yer usti suv oqimlarining strukturasini tadqiq qilishda asosiy manba bo'lib hisoblanadi.

Yer usti suv oqimlarining "daraxtsimon" va "havzaviy" strukturalini tadqiq qilishning nazariy va amaliy ahamiyatlari quyidagilardan iborat: 1. Delta geotizimlarida Yer usti suv oqimining faoliyati natijasida hosil bo'lgan kichik deltalar hozirgi vaqtda obyektlardagi Yer usti suv oqimining "daraxtsimon" strukturasini hosil qiladi; 2. Kichik deltalardagi Yer usti suv oqimlarining "daraxtsimon" strukturasini relyefning elementlari bilan aloqadorlikda bo'lib, balandlik va pastliklarning maydoniga bog'liq holda meliorativ sharoitning har xil bo'lishida Yer usti suv oqimining rolini amaliy asoslab beradi; 3. Kollektor havzasidagi Yer usti suv oqimining "havzaviy" strukturasini avvalambor obyektidagi geokimyoviy landshaftning elementlariga bog'liq bo'lib, ular asosan elyuvial elementar landshaftidan superakval elementar landshafti tomon harakat qiladi, ya'ni huddi shu yo'nalishda landshaftlarning geokimyoviy rejimi tartibli o'zgaradi; 4. Amudaryo hozirgi deltasi sug'orilmaydigan hududlardagi Yer usti suv oqimlarining "daraxtsimon" strukturasini va sug'oriladigan hududlaridagi "havzaviy" struktura O'rta Osiyodagi barcha delta geotizimlariga xos bo'lgan umumiy geografik strukturadir.

Ikkinchi bobning eng so'nggi to'rtinchi paragrafi **"Amudaryo va kichik deltalarning o'zanbo'yi landshaftlaridagi geokimyoviy landshaft elementlarining relyef strukturasini bilan o'zaro aloqadorligi"** deb nomlanib, bu qismda asosan Amudaryo va kichik deltalardagi elyuvial elementar landshaftining meliorativ holati tadqiq qilinadi. Amudaryo o'zanbo'yi balandliklarini ularning maydonlariga qarab uch qismga ajratamiz: **1. Yuqori; 2. O'rta; 3. Quyi.**

1. Yuqori qism. Yuqori qism o'ng qirg'oqdagi Nukus shahrining janubidan boshlanib, o'ng qirg'oqdagi Erkindaryo kichik deltasigacha va chap qirg'oqdagi Ravshan kichik deltasigacha davom etadi. Bu qismdagi Amudaryo o'zanbo'yi balandliklarida elyuvial elementar landshafti yaxlit bo'lgan geokimyoviy landshaftining boshqa elementlariga nisbatan ustunlik qiladi. Deltaning o'ng qirg'og'ida elyuvial elementar landshafti chap qirg'oqqa nisbatan ko'p maydonni egallaydi, ya'ni bu landshaftning ko'p qismi Qizketken-Chimboy kichik deltasining yuqori qismiga to'g'ri keladi. Bu qismda elyuvial elementar landshafti katta hududni egallagan uchun ulardagi avtomorf tuproqlar asosan kam sho'rlangan bo'ladi.

2. O'rta qism. Bu qismga biz shartli ravishda Ravshan va Erkindaryo kichik deltalaridan Ko'hnadaryo-Qozoqdaryo kichik deltalarigacha bo'lgan hududlarni kiritamiz. Shu bilan bir qatorda bu qismga Qizketken-Chimboy kichik deltasining o'rta qismi, Kiyatjargan va Uldaryo kichik deltalarining quyi qismlari hamda

Oqboshli va Qipchoqdaryo kichik deltalarining yuqori qismlari kiradi. Oqboshli, Qipchoqdaryo va Ko'hnadaryo-Qozoqdaryo kichik deltalaridagi geokimyoviy jarayonlarga qurigan Orol dengizining ta'siri kuchlidir. Bu qismda superakval elementar landshafti Sudochye ko'li atrofida eng katta maydonni egallaydi. Sudochye ko'li atrofida joylashgan superakval elementar landshafti o'zining sho'rlanish darajasining kuchliligi bilan Kuskanatau qirining janubida joylashgan superakval elementar landshaftiga nisbatan hamda Karaten ko'lining janubida joylashgan superakval elementar landshaftining sho'rlanish darajalaridan keskin ajralib turadi. Umuman olganda Sudochye ko'li atrofida superakval elementar landshaftining ustunlik qilishi o'z navbatida bu hududda sho'rlanish jarayoniga har tomonlama tabiiy asos bor, ya'ni bu hudud barcha Yer usti suv oqimlarining va grunt suvlari tabiiy oqimining eng so'nggi manzillari hisoblanadi.

3. Quyi qismi. Bu qismda joylashgan Oqboshli, Qipchoqdaryo, Ko'hnadaryo-Qozoqdaryo kichik deltalarida asosan superakval elementar landshafti ustunlik qiladi. Bu hududda 1961 yilgacha gidromorf rejimidagi landshaftlar deyarli ustunlik qilgan, ya'ni Amudaryo hozirgi deltasining eng yosh kichik deltalari shu qismda joylashgan. Ko'hnadaryo-Qozoqdaryo kichik deltasi obyektning eng so'nggi deltasi hisoblanadi, ya'ni 1961 yildan boshlab Amudaryo suv sarfining cheklanganligi sababli bu kichik deltadan so'ng deltalar hosil bo'lmagan.

Yuqoridagi bu uch qismlar quyidagi umumiy xususiyatlarga ega:

1. Amudaryo o'zanbo'yi balandliklarida elyuvial elementar landshaftining maydoni bir tomondan Amudaryo o'zanidan g'arb va sharq tomonlarga kamayib borsa, ikkinchi tomondan esa janubdan shimol tomon kamayib boradi;

2. Amudaryo o'zanbo'yi balandliklarining yuqori qismida elyuvial elementar landshafti ustunlik qilganligi uchun tuproqlarning meliorativ holati ijobiydir, ya'ni asosan kuchsiz sho'rlangan, kamdan kam hollarda sho'rlamagandir;

3. Amudaryo hozirgi deltasining o'rta qismida joylashgan Ravshan va Erkindaryo kichik deltalarida trans-elyuvial elementar landshafti ustunlik qilganligi uchun tuproqlarning sho'rlanish darajasida o'rta sho'rlangan tuproqlar ustunlik qiladi; 4. Amudaryo hozirgi deltasining quyi qismidagi kichik deltalarning hammasida deyarli superakval elementar landshafti ustunlik qilganligi uchun tuproqlar kuchli va juda kuchli sho'rlangandir.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Amudaryo hozirgi deltasi Yer resurslarining meliorativ holatini yaxshilashda va ulardan oqilona foydalanishda relyef strukturasiining ilmiy hamda amaliy ahamiyatlari”** deb nomlanib, uning birinchi paragrafida **“Tabiiy geografiya fanidagi geostrukturali paradigmada elementar landshaftlarning meliorativ holatini tadqiq qilish muammolari”** masalalari ko'rib chiqiladi. Tabiiy geografiya fanida to'rtta (geokomponentli, geomajmual, ekologik, geostrukturali) paradigmalar bo'lib, biz relyef plastikasi usuli yordamida geostrukturali paradigmani elementar landshaftlarning meliorativ holatini tadqiq qilishda V.N.Solnsev (1981) tabiiy geografiya fanida mavjud bo'lgan juda ko'plab strukturaga tegishli tushunchalarni tahlil qilib, shunday hulosaga keladi: “Struktura deganda yo obyektning ichki tuzilish xususiyati, yo obyektidagi elementlarning bir-biriga bo'lgan munosabati hamda aloqadorligi tushuniladi”. Shu bilan bir qatorda struktura haqidagi tasavvur

obyekt haqidagi tasavvurdan kelib chiqadi. Misol uchun, relyefning daraxtsimon strukturasini haqidagi tasavvur obyektidagi kichik deltalarning strukturasini tadqiq qilgandan keyin kelib chiqadi. Geostrukturali paradigmada “geotizim” (obyekt) haqidagi ma’lumot “struktura” haqidagi ma’lumotdan hosil bo’lsa, “struktura” haqidagi ma’lumot esa o’z navbatida obyektidagi “elementlarning o’zaro munosabatidan” hosil bo’ladi.

Delta geotizimlarida har bir elementar landshaft o’zining geografik o’rniga ko’ra har xil meliorativ holatga ega bo’ladi. Misol uchun, elyuvial elementar landshafti asosan o’zanbo’yi balandliklarida va kichik deltalarning yuqori qismlarida uchraydi. Bu elementar landshaftida asosan avtomorf rejimidagi o’tloq-taqirli tuqay tuproqlari tarqalgan bo’lib, ular asosan kuchsiz sho’rlangan bo’lgan bo’lib, ular asosan kuchsiz sho’rlangan bo’ladi. Superakval elementar landshafti asosan o’zanlararo pastliklarda va kichik deltalarning quyi qismlarida uchraydi. Bu elementar landshaftida asosan sho’rxoklarning har xil turlari tarqalgan bo’lib, ular asosan kuchli va juda kuchli sho’rlangan bo’ladi. Demak, biz geostrukturali paradigmaning nazariyasini hisobga oladigan bo’lsak, elementarlandshaftlarning umumiy meliorativ holati haqidagi ma’lumot har xil guruhdagi elementar landshaftlarning umumiy meliorativ holati haqidagi ma’lumot har xil guruhdagi elementar landshaftlarning ma’lumotidan hosil bo’lsa, har bir elementar landshaftining meliorativ holati haqidagi ma’lumotlar esa o’z navbatida ana shu elementar landshaftdagi elementlarning o’zaro munosabatidan hosil bo’ladi.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafida **“Kollektor geotizimlarining havzaviy strukturasini va Yer resurslaridan oqilona foydalanishda hamda uning meliorativ holatini yaxshilashda relyef strukturasining roli”** deb nomlanib, kollektor havzasidagi yer resurslaridan oqilona foydalanishda va uning meliorativ holatini yaxshilashda kollektor geotizimidagi relyef havzaviy strukturasining roli ko’rib chiqiladi. Kollektor havzasidagi Yer resurslaridan oqilona foydalanishda yer usti suv oqimlarining faoliyati natijasida vujudga kelgan kichik deltalardagi relyefning daraxtsimon strukturasini va hozirgi vaqtda ana shu struktura bilan bog’liq bo’lgan tizim hosil qiluvchi oqimlarning jarayoni oqibatida hosil bo’luvchi havzaning funksional yaxlitligi katta ahamiyatga ega ekanligi hisobga olindi. Yer usti suv oqimlari relyef strukturasini bilan aloqador bo’lgan Yer resurslarining meliorativ holatini va sifatini belgilab beradi. Havzadagi tuproq qoplarning strukturasini bu – tuproqlarning kollektorlardagi relyefning havzaviy strukturasini bilan birikuvidir. Delta sharoitida tuproq xillari va uning meliorativ holati bir tomondan havzadagi kichik deltalarning daraxtsimon strukturasini bilan bog’langan bo’lsa, ikkinchi tomondan esa kollektorlardagi relyefning havzaviy strukturasini bilan birikkandir.

Kollektor geotizimlaridagi Yer resurslaridan havzaviy foydalanishda va ularning meliorativ holatini yaxshilashda havzadagi kichik deltalarning soni katta amaliy ahamiyatga ega. Kollektor havzalarida kichik deltalarning soni qancha kam bo’lsa, Yer resurslarining meliorativ holati shuncha yaxshi bo’ladi. Bu esa o’z navbatida ana shu kollektor geotizimlaridagi Yer resurslaridan yanada ko’proq oqilona foydalanishga amaliy asos bo’lib hisoblanadi.

Bobning eng so'nggi uchinchi paragrafi **“Kichik deltalardagi relyefning “shoxlanuvchi” strukturasi va Yer resurslaridan oqilona foydalanishda hamda meliorativ holatini yaxshilashda uning roli”** deb atalib, bu qismda Yer resurslaridan oqilona foydalanishda va uning meliorativ holatini yaxshilashda kichik deltalardagi relyef “shoxlanuvchi” strukturasi roli bayon qilinadi. Bu muammoni ijobiy hal qilishda Qizketken-Chimboy kichik deltasining ichki tuzilishi har tomonlama ko'rib chiqiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Qizketken-Chimboy kichik deltasi o'zining ichki tuzilishi bo'yicha uch qismga bo'linadi: 1. Yuqori; 2. O'rta; 3. Quyi. Yuqori qismda asosan “shoxlanuvchi” struktura ko'p maydonni egallasa, o'rta qismda esa “cho'ziluvchan” relyef strukturasi ustunlik qiladi. Quyi qismda esa, relyefning umumiy shakli “uchburchak”ni hosil qiladi. Kichik deltaning yuqori va o'rta qismlari sug'orma dehqonchilikda foydalaniladigan bo'lsa, quyi qismi asosan yaylov chorvachiligida foydalaniladi.

Deltaning yuqori va o'rta qismlarida tuproqlarning meliorativ holati tizimli o'zgarib boradi. Shu bilan bir qatorda o'rta qismining quyida joylashgan “Turkman qirilgan qumi”gacha asosan paxta ekiladi. Quyi qismi bir tomondan qurigan Orol dengiziga yaqin bo'lganligi, ikkinchi tomondan esa Jiltirbas ko'liga yaqinligi sababli tuproqlari kuchli va juda kuchli sho'rlangandir. Kichik deltalarning “shoxlanuvchi” strukturasi relyefdagi o'zanbo'yi balandliklarini, o'zanlararo pastliklarni o'z ichiga olganligi sababli deltada olib boriladigan Yer resurslaridan oqilona foydalanish natijasida vujudga keldigan barcha ijobiy va salbiy tabiiy geografik jarayonlar o'z navbatida ana shu relyefning yoki elementar landshaftining uch guruhi bilan bog'langandir.

XULOSA

1. Yer yuzining strukturasi tadqiq qilishda yirik masshtabli relyef plastikasi kartalari alohida rol o'ynaydi. Bu kartalarda relyefning ikki elementi (balandliklar va pastliklar) yaxshi ko'rsatilganligi uchun, bularning konturlari elementar landshaft guruhlarini ajratishda asos bo'lib hisoblanadi. Misol uchun Qizketken-Chimboy kichik deltasining yuqori qismida elyuvial elementar landshafti uchunlik qilsa, Oqboshli va Qipchoqdaryo kichik deltalarining yuqori qismlarida esa elyuvial elementar landshaftining maydoni juda kichikdir. Bu esa o'z navbatida ana shu kichik deltalardagi elementar landshaft guruhlarining meliorativ holatiga ta'sir etadi.

2. Ideallashtirilgankichik deltada obyektidagi relyefning shakllari (o'zanbo'yi balandliklari, o'zanbo'yi balandliklarining yonbag'irlari va o'zanlararo pastliklar) bilan elementar landshaft guruhlarining (elyuvial, tarns-elyuvial, superakval) uyg'unligi ilmiy asoslandi.

3. Relyefni kartografik ideallashtirish kartasi elementar landshaft guruhlarining meliorativ holatiga ta'sir etadigan Yer usti suv oqimlarining yo'nalishlarini aniq tasvirlaydi. Bu o'rinda suv ayirg'ichlarda joylashgan elyuvial elementar landshaftda (o'zanbo'yi balandliklari) alohida rol o'ynaydi.

4. Tabiiy geografiya fanidagi “Geostrukturali” paradigmada asosiy e’tibor relyef elementlarining munosabatini tadqiq qilishga qaratilgan. Ajratilgan barcha kichik deltalarda elementar landshaft guruhlarining maydonlari har xil bo’lganligi sababli, bu elementar landshaft guruhlarining meliorativ holati ham turlicha bo’ladi. Shimoldagi kichik deltalarda elementar landshaft guruhlarining meliorativ holatida qurigan Orol dengizining ta’siri kuchli bo’lsa, janubdagi kichik deltalar elementar landshaft guruhlarining meliorativ holatida irrigatsiya va melioratsiya tizimlari katta rol o’ynaydi.

5. Erkindaryo kichik deltasidagi elementar landshaft guruhlarining meliorativ holatida shunday qonuniyat kuzatiladi, ya’ni kichik deltaning g’arbiy qismidagi elementar landshaft guruhlarining meliorativ holatida tabiiy sho’rlanish jarayoni ro’y bersa, sharqiy qismi sug’orilganligi sababli elementar landshaft guruhlarining meliorativ holatida grunt suvlari chuqurligining mavsumiy o’zgarib turishi alohida rol o’ynaydi. Ana shuning uchun ham kichik deltaning g’arbiy va sharqiy qismlaridagi elementar landshaft guruhleri o’zlarining meliorativ holatidagi mavsumiy o’zgarishlari bilan bir-biridan tubdan farq qiladi.

6. Amudaryo o’zanbo’yi balandliklarini shartli ravishda uch qismga ajratish mumkin: 1. Nukus shahridan Erkindaryo kichik deltasigacha bo’lgan yuqori qismi; 2. Erkindaryo kichik deltasidan Ko’hnadaryo-Qozoqdaryo kichik deltasigacha bo’lgan o’rta qismi; 3. Ko’hnadaryo-Qozoqdaryo kichik deltasidan deltaning 1961 yilgacha bo’lgan chegarasigacha qadar quyi qismi. Amudaryo o’zanbo’yi balandliklarining bu qismlari bir-biridan elementar landshaft guruhlarining maydonlari va ularning meliorativ holati bo’yicha farq qiladi, ya’ni yuqori qismda sho’rlanmagan yoki kuchsiz sho’rlangan elyuvial elementar landshafti ustunlik qilsa, quyi qismda esa sho’rlangan yoki kuchli sho’rlangan superakval elementar landshafti hukmronlik qiladi.

7. Kichik deltalardagi va kollektor geotizimlaridagi elyuvial, trans-elyuvial, superakval elementar landshaft guruhleri bir-biridan tuproqlarning mexanik tarkibi hamda grunt suvlarining chuqurligi bo’yicha keskin farq qiladi. Bu farqlar o’z navbatida kichik deltalardagi va kollektor geotizimlaridagi elementar landshaft guruhlarining tabaqalanishiga va ularning meliorativ holatiga ta’sir etadi. Kichik deltalarning va kollektor havzalarining yuqori qismlarida elementar landshaft guruhlarining bir-biri bilan almashinishi yaqqol namoyon bo’lsa, quyi qismlarida esa ularning almashinishi asta-sekinlik bilan ro’y beradi.

8. Obyektdagi Yer resurslaridan oqilona foydalanishda bir tomondan sug’orilmaydigan hududlardagi kichik deltalarning shoxlanuvchi strukturasi asosiy rol o’ynasa, ikkinchi tomondan esa sug’oriladigan hududlardagi kollektor geotizimlari havzaviy strukturasi roli benihoya kattadir. Bu relyef strukturali obyektiv mavjud bo’lgan hududlar bo’lib, bu hududlarni har tomonlama tizimli-strukturali tahlil qilishda yirik masshtabli relyef plastikasi kartalari alohida rol o’ynaydi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ
ШАРОФА РАШИДОВА**

**ЧИРЧИКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ХАКИМОВ ОЛИМЖОН НЕМАТОВИЧ

**РОЛЬ СТРУКТУРЫ РЕЛЬЕФА В МЕЛИОРАТИВНОМ СОСТОЯНИИ
ЭЛЕМЕНТАРНЫХ ЛАНДШАФТОВ СОВРЕМЕННОЙ ДЕЛЬТЫ
АМУДАРЬИ**

11.00.01 – Физическая география

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ГЕОГРАФИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Самарканд – 2025

Тема диссертационного исследования доктора философии (PhD) по географическим наукам зарегистрирована Высшей Аттестационной Комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером № B2024.3.PhD/Gr.332

Диссертация выполнена в Чирчикском государственном педагогическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.samdu.uz), а также информационно-образовательного портала «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Уразбаев Абдукарим Кендирбаевич
доктор географических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Рафиков Вахаб Асомович
доктор географических наук, профессор

Алимкулов Нусратулла Рахмонкулович
доктор географических наук, доцент

Ведущая организация:

Бухарский государственный университет

Защита диссертации состоится 22 августа 2025 г. в 11:00 часов на заседании Научного совета по присуждению учёных степеней DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова (Адрес: 140104, г. Самарканд, ул. Университетский бульвар, дом-15. Тел.: (+99899) 776-77-25), факс: (+99866) 239-19-36; E-mail: ik-geografiya@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова (зарегистрирована под №.60). адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, дом-15., Тел.: (+99866) 239-16-36, факс: (+99866) 239-11-40.

Автореферат диссертации разослан 9 августа 2025 года.
(реестр протокола рассылки №11 от 24 июля 2025 года).



С.Б.Аббасов
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.г.н., профессор

Б.А.Мелиев
Ученый секретарь Научного
совета по присуждению ученых
степеней, доктор философии
по географическим наукам (PhD), доцент

К.С.Ярашев
Председатель Научного семинара
при Научном совете по присуждению
учёных степеней д.г.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

